

Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2026-yil yanvar-may oylari uchun

- I. Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Andijon viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

Bugungi kunda viloyatda 4 759 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy soniga nisbatan yuqori ulushga ega 1 256 tasi (26,4 %) Andijon shahriga, 618 tasi (13,0 %) Andijon tumaniga, 370 tasi (7,8 %) Shahrixon tumaniga, 351 tasi (7,4 %) Asaka tumaniga va 259 tasi (5,4 %) Xo'jaobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni 1-iyun holatiga ko'ra



II. Andijon viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Sanoat - bu, xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2026-yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 44 049,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 109,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

	Hajm mlrd so'm	Fizik hajm indeksi %
Andijon viloyati	44 049,7	109,3
Andijon sh.	7 121,8	113,2
Xonobod sh.	1 575,4	108,6
<i>Tumanlar</i>		
Oltinko'l	944,9	110,7
Andijon	1 094,1	112,4
Baliqchi	1 560,1	110,9
Bo'ston	331,0	110,3
Buloqboshi	1 111,2	124,6
Jalaquduq	1 019,5	112,5
Izboskan	639,1	115,3
Ulug'nor	516,2	109,7
Qo'rg'ontepa	1 702,0	110,7
Asaka	18 184,0	108,1
Marhamat	790,6	128,5
Shahrixon	1 370,3	109,6
Paxtaobod	1 244,6	116,1
Xo'jaobod	1 406,3	110,1

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Andijon viloyatida 2026-yilning yanvar-may oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 12 486,3 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 107,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, Buloqbosh tumanida (122,6 %), Marxamat tumanida (126,3 %), Paxtaobod tumanida (114,3 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish yanvar-may oylarida




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-may oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 42 120,0 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (95,6 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 983,4 mlrd so'm (2,2 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 858,8 mlrd so'm (1,9 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 87,5 mlrd so'm (0,2 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi

2026-yilning yanvar-may oylari



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-may oylarida viloyatda 102 978 dona yengil avtomobillar (2025 yilning yanvar-may oylariga nisbatan 10,5 % ga ko'paygan), 11,8 ming tonna Neft (17,4 % ga ko'paygan), hamda 28,9 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (58,9 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-may *	2025-yil yanvar-may *	2026-yil yanvar-may *
Yumshoq bug'doy va spelta uni ming tonna	17,6	18,2	28,9
Paxta tolasi ming tonna	19,6	59,3	6,2
Neft ming tonna	8,5	10,1	11,8
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj polotnolar - tonna	2 019,3	1 696,7	2 566,9
Kalish - ming juft	2 419,6	3 034,5	2 859,3
Temir yoki po'lat simdan matolar, panjaralar, to'rlar tonna	107,0	30,3	38,9
Yengil avtomobillar dona	103 639	93 198	102 978
80 % dan kam bo'lmagan etil spirti ming litr	3 383,4	3 603,5	3 471,0

**2024-2025-yillar yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlar

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2025 yilning yanvar-may oylarida 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 54,2 % (62,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 5,1 % (3,2 %), quyi texnologiyali esa 40,5 % (34,3 %)ni tashkil etgan.






Andijon viloyatida yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish yanvar-may oylari

Yengil avtomobillar – umumiy yoki “maxsus yengil avtomobillar”ga bo'linib, 4 kishigacha mo'ljallangan transport vositasi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2026-yilning yanvar-may oylarida 69 302 dona “Cobalt” (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,7 % ga oshgan), 18 519 dona “Tracker” (2,4 % ga kamaygan), 15 157 dona “Onix” (6,5 % ga kamaygan) ishlab chiqarildi.

**Andijon viloyatida yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish,
donada**
yanvar-may oylarida



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab
chiqarish hajmi**

2026-yilning yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 64,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-may *	2025-yil yanvar-may *	2026-yil yanvar-may *
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	128,5	105,0	64,2
Iссиqlik energiyasi, ming gkal	0,0	0,0	0,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya xizmatlar bo'yicha 3,9 % ga oshgani kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-may *	2025-yil yanvar-may *	2026-yil yanvar-may *
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar - mlrd so'm	71,9	57,5	59,7
Oqava suvlarning shlami - mlrd so'm	13,9	12,7	15,7

*2024-2025-yillar yanvar-may oyilari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 908,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 34,3 % ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-may oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 27,9 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat – bu, xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Andijon viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslar bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erfbgheheh5446456>

